

# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA 9-SONLI MOLIYAVIY XISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARINI TADBIQ ETISH**

***U.T.Yunusov, tinglovchi  
Bank moliya Akademiyasi***

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o'rinnarda — MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

1. Belgilansinki, aksiyadorlik jamiyatları, tijorat bankları, sug'urta tashkilotları va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o'tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno;

2021-yil yakuniga qadar buxgaltyerlarni xalqaro sertifikatlash doirasida "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot" fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud "Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)", "Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)", "Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)" va "Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)" sertifikatlaridan (keyingi o'rinnarda — xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo'llash uchun yetarli bo'lган buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlaydi. Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish uchun javobgarlik korxona rahbariyatiga tegishli. Bundan tashqari, korxona rahbariyati moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarga qiziqish bildirmoqda va uni rejalashtirish, qaror qabul qilish va nazorat qilish, majburiyatlarni bajarish jarayonida qo'llaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va mamlakat iqtisodiyotini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sharoitida moliyaviy hisobotlarni axborot bilan ta'minlash sifatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldag'i PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi.

Ayrim holatlarda yagona aniq hodisani aniqlash imkonи bo'lmaydi, balki moliyaviy aktivning kredit qadrsizlanishi bu bir nechta hodisalarini birlashgan natijasi bo'ladi. Berilgan ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki, MHXS 9ning asosiy mohiyati va o'zidan oldingi 32-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (Moliyaviy instrumentlar: Taqdim etish) o'rniga chiqishi bu standartdan ajratib turadigan farqli jihatni unda kompaniyaning moliyaviy instrumentlaridan kelajakda kutishi mumkin

Qarorga muvofiq 2021 -yil 1-yanvardan MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi:

-aksiyadorlik j amiyatlari -tijorat banklari -sug'urta tashkilotlari

-yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar.. Tahlil va natijalar.

Shu bilan birga, bu vaqt mobaynida xalqaro standartlarga o'tish nafaqat yuqoridagi xo'jalik yurutuvchi alohida kompaniyalarga, balki butun ichki buxgalteriya tizimiga ham tegishli hisoblanadi. Chunkiy tizimlarni uyg'unlashtirish buxgalteriya hisobi bo'yicha yangi nizomlarni joriy etish va mavjud qoidalarni o'zgartirish orqali amalga oshirildi, bu esa oxir-oqibatda ko'plab o'zbek korxona va kompaniyalari uchun ichki hisob-kitob tizimida sezilarli uzilishlarsiz bir qator MHXS qoidalarini to'la-to'kis qo'llash imkonini berdi.

Mahalliy mutaxassislar tomonidan har doim ham xalqaro yangiliklarni qabul qilish oson emas. Tarixan, O'zbekiston buxgalteriya maktabi har doim buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot berishni afzal ko'rgan. O'zbekiston buxgalterlari soliq va fuqarolik qonunchiligiga yo'naltirilgan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy baza talablariga aniq muvofiq xo'jalik hayoti faktlarini talqin qilish va aks ettirishga alohida e'tibor qaratdilar.

Biroq, bu yondashuv MHXS tizimida buxgalteriya hisobini talqin qilish tamoyillaridan tubdan farq qiladi. Qonun chiqaruvchi tomonidan bir xil ko'rsatkichlarni aniqlashda kiritilgan iqtisodiy ma'no davlatdan davlatga farq qilishi mumkin. MHXS tizimida bu nuqson ushbu hisobdan foydalanadigan barcha mamlakatlarning hisobotlari uchun yagona, umumiyligi qabul qilingan ta'riflarni tartibga solish orqali bartaraf etiladi, shu bilan hisobot ma'lumotlarining universalligi va shaffofligi talabi ta'minlanadi.

Xalqaro buxgalteriya tizimiga o'tish mahalliy mutaxassislar tomonidan buxgalteriya tizimidagi iqtisodiy hayot faktlarini aks ettirish uchun professional qarordan yanada faol foydalanishni talab qiladi. Bundan tashqari, xalqaro buxgalteriya tizimida keng qo'llaniladigan baholash usullarini qo'llashda sezilarli qiyinchiliklar mavjud. Xalqaro tizimdagi hisobot maqolalarining aksariyati manfaatdor foydalanuvchilarga ma'lumotni yanada etarli darajada taqdim etish uchun baholash ko'rsatkichlarini majburiy qo'llashni talab qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz tashqi investorlarni jalb qilish uchun bor imkoniyatlarni ishga solmoqda va bu o'z natijasini ko'rsatmoqda. Mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida jahon standartlarini amaliyatga joriy etishi va qo'llashi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek yuqori daromadli va istiqbolli korxona-tashkilotlar va tijorat banklarining o'z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishlari va ularni jahon qimmatli qog'ozlar bozorlarida qo'yilgan aksiyalarga qiziqish bildirgan investorlarga taqdim etish orqali hamma uchun turshunarli iqtisodiy tilda izohlab berish tashqi investorlarni jalb etishning muhim bir jihatni deyishimiz mumkin.

Markaziy bank va boshqa manfaatdor shaxslarga taqdim etadilar va bu jarayon davlat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki aynan mamlakatimizda mavjud bo'lgan moliyaviy hisobotlarni kimgarga taqdim etish va hisobotlarni tuzish tartibi milliy standartlarga asoslanganligi qonun

bilan belgilab qo'yilganligi dunyoning boshqa ko'pchilik davlatlarida ham kuzatiladi. Bu yerda men shuni aytmoqchimanki, o'sha biz aytayotgan xalqaro standartlarni amaliyatga joriy etgan davlatlar ham avvalombor milliy qonunchilikdan kelib chiqib hisobot tuzishni va taqdim etishni talab qiladilar. Shuningdek davlat iqtisodiy-ijtimoiy manfaatdor bo'lган korxona-tashkilot va tijorat banklariga o'z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishga ruxsat beradi va qonuniy jihatdan shart-shariot yaratib bergen. Bu davlatlar amaliyatidan xulosam shuki, har bir davlat o'z iqtisodiy-ijtimoiy holatidan kelib chiqib o'ziga mos qonunchilik bazasiga ega va har doim davlat manfaatlari ustun qo'yiladi, shuningdek davlat boshqalarning manfaatlarini ko'zlagan holda shart-sharoit yaratib berishi kerak ekan. Agar yuqorida ko'rsatilgan sabablar o'z yechimini topadigan bo'lsa o'ylaymanki xalqaro standartlarga o'tish jarayoni tezlashadi va samarali natijalarga erishiladi. Mamlakatimiz prezidenti tomonidan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish" bo'yicha chiqarilayotgan qonun va qarorlar, shuningdek buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonining ketayotganligi bu sohadagi ildam qadamlar deyishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadvallar ma'lumotlarini tahlil qilishimizdan oldin MHXS 9 haqida ozroq tushuncha berib o'tamiz. MHXS 9 2001 yilda ish boshlagan IASB (International Accounting Standards Board –Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi) tomonidan chiqarilgan standartlardan biri bo'lган 39-IAS (Internatinal Accounting Standards – Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari) o'rnini egallagan. Jahon iqtisodiy inqirozidan oldin, Moliyaviy hisob standartlari bo'yicha kengash (FASBFinancial Accounting Standards Board) va Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi (IASB) buxgalteriya hisobida moliyaviy instrumentlar hisobini yuritish bo'yicha tegishli standartlarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish bo'yicha qo'shma loyihani boshlagan edi. Jahon iqtisodiy inqirozi moliyaviy instrumentlar uchun mavjud buxgalteriya modeli o'ziga xos bo'shliqlar va nomuvofiqliklar bilan bugungi murakkabiqtisodiy muhit uchun etarli emasligi haqidagi mavjud holatni isbotlab berdi. Jahon iqtisodiy inqirozidan so'ng moliyaviy hisobotlar to'g'ri va aniq tuzish butun dunyo e'tiborining mavzusiga aylandi, bunda asosiy e'tibor bir qator sohalarda, jumladan, moliyaviy instrumentlarning buxgalteriya hisobi standartlarini takomillashtirish zaruriyatiga qaratildi.

Xulosa. Shunday qilib xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, biz yuqorida ko'rib o'tgan moliyaviy natija ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar shu jumladan sof foydaga yaratilayotgan zaxira miqdorining salbiy ta'siri bir qarashda moliyaviy hisobot manfaatdor foydalanuvchilarida salbiy yoki noto'g'ri taasurot uyg'otishi turgan gap, lekin shuni unutmasligimiz kerakki yaratilayotgan zaxira ko'rib turganimizdek keyingi yili qaytmoqda, bu degani qaysidir yil ko'proq zaxira yaratilsa, qaysidir yil kamroq bo'lishi mumkin albatta bu kredit portfelining mavjud holatiga bog'liq bo'ladi va albatta keyingi yillarda portfeldagi ijobjiy o'zgarishlar tufayli zaxiralarnining qaytishi va sof foyda ko'rsatkichini yaxshilash bilan izohlanadi. Yaratiladigan zaxirani biz birinchi navbatda kompaniya aktivlarining hisobot sanasidagi sof qiymatini ko'rsatish bilan izohlasak, ikkinchidan yaratiladigan zaxira kompaniya uchun "xavfsizlik yostiqchasi" vazifasi bo'lib xizmat qiladi deyishimiz mumkin, bu degani kompaniya

qaysidir moliya yilini salbiy natija bilan yakunlagan taqdirda kichik inqirozlarni yengillashtirishga va osongina yengib o'tishga yordam beradi va kompaniyani birdaniga bankrotlik yoqasiga kelib qolishdan qaytaradi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi 4611-sonli qarori.*

*Mirziyoyev Sh.M. "YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI":-T: "O'zbekiston".2022-y.418-b.*

*Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Darslik. – T.: "Iqtisodmoliya", 2019 y. - 584 b.*

*Norbekov D.E., To'raev A.N., Raxmonov Sh.Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Iqtisod-moliya, 2019 y. -329 b.*

*Ergasheva Sh.T., Uchebnik «Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti» –T.: TGEU, 2020 g.- 307 str.*

*Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 –International Financial Reporting Standart). IFRS Foundation 2022*

*The manual of Accounting – IFRS 2019. The Global Accounting Consulting Services team of PricewaterhouseCoopers LLP 2019.*

## **RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI TENDENSIYALARI VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH**

**D.H.Suvonov**

**A.F.Erboev**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Iqtisodiyotni rivojlantirish har doim davlatlarning oldida turgan eng katta maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiyot bu davatlarni rivojlanishi va o'sishini ta'minlovchi manba hisoblanadi. Biz iqtisodiyot deb atayotganimiz bu davatlarning savdo munosabatlaridan tortib ishlab chiqarish korxonalar,korporatsiyalar va doimiy valyuta va pul bilan bo'ladigan tranzaksiyalar va munosabatlar hisoblanadi.Iqtisodiyotni tarkibida moliya ham mavjud. Moliya asosan pul bo'ladigan munosabatlardir. Iqtisodiyot bu davatlarning eng muhim rivojlanish vositasi hisoblanadi. Bu iqtisodiyotni rivojlantirish uchun biz zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz hozirgi kunning talabi bo'lib qoldi desak xato qilmagan bo'lamiz. Hozirda iqtisodiyotni yangicha raqamlashtirish orqali biz uni raqamli iqtisodiyot deb atadik va bu orqali biz iqtisodiyotda yangi texnologiyalarni qo'llash orqali rivojlantiramiz va bu rivojlanishni bir necha barobarga oshirishi sir emas.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiysi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi. Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar